ATROF-MUHIT VA TABIIY RESURSLAR IQTISODIYOTI FANINING ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

B.R.Ramazonov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

“Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so‘rasangiz, farzandlarimning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”.
Sh.M.Mirziyoyev

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767821

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali, oqilona foydalanish, kelajak avlod uchun resurslarni asrab-avaylash, global iqlim o‘zgarishlari, iqtisodiy va ekologik komponentlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Orol dengizi, iqtisodiyotini rivojlantirish, bioxilma-xillik, global iqlim o‘zgarishlari, suv resurslari, barqaror taraqqiyot, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, tabiatni muhofaza qilish.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются развитие экономики страны сегодня, эффективное и рациональное использование природных ресурсов, сохранение ресурсов для будущих поколений, глобальные изменения климата, тесная взаимозависимость экономической и экологической составляющих, негативные последствия строительства Аральское море и т.д. будут рассматриваться.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Аральское море, экономическое развитие, биоразнообразие, глобальные изменения климата, водные ресурсы, устойчивое развитие, устойчивое развитие, природные ресурсы, охрана природы.

ABSTRACT

The article deals with the development of the country's economy today, the effective and rational use of natural resources, the preservation of resources for future generations, global climate changes, the close interdependence of economic and ecological components, the negative consequences of the drying up of the Aral Sea, etc. will be considered

KEY WORDS

Aral Sea, economic development, biodiversity, global climate changes, water resources, sustainable development, sustainable development, natural resources, nature protection.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali, oqilona foydalanish, kelajak avlod uchun resurslarni asrab-avaylash, resurslar bitmas-tuganmas ekanligini o‘sib kelayotgan yosh avlodga to‘g‘ri tushuntirish, ularga erologik ta’lim va tarbiya berish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda resurs tejamror texnologiyalar yaratish, yer, suv, o‘simlik resurslarini, shu bilan birga bioxilma-xillikni asrab-avaylash, tabiiy resurslar – gaz, neft, ko‘mir va hokazo tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishlari butun jahon hamjamiyati oldida turgan olamshumul muammolardan biridir. Global iqlim o‘zgarishlarining asosiy sabablaridan biri tabiatda antropogen ta’sirning kuchayishi hamda yuz berayotgan anomal hodisalar va bosimning kuchayishidir. Yer yuzida ro‘y berayotgan global iqlim o‘zgarishlari natijasida sodir boy‘layotgan salbiy o‘zgarishlar ko‘plab mamlakatlarni qamrab olgan. Ayniqsa, suv resurslari taqchil bo‘lgan, chuchuk suv muammosi kuchli bo‘lgan hududlarda iqlim o‘zgarishlari natijasida, cho‘llanish va sahrolanish jarayonlari tez rivojlanmoqda. O‘zbekistonda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasining qabul qilinganligi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda, mamlakat aholisining turmush-tarzini yaxshilashda, xalqning farovonligini oshirishda, barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish hamda ularning mutanosibligini ta’minlash murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonlarning atrof-muhitga tashqi ta’sirini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi.

Barqaror rivojlanish konseptsiyasida “Tabiat–bu ajdodlardan qolgan meros emas, balki avlodlardan qarzga olingan boylikdir” – deyiladi. Barqaror rivojlanish g‘oyasining maqsadi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda hozirgi zamon kishilik jamiyatini uzviy bog‘langan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini bir me’yorda ta’minlashdir.

Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda davlat va hukumat rahbarlari tomonidan qabul qilingan hujjat printsipial jihatdan yangi global majburiyat hisoblanadi. Barqaror rivojlanishining 17-maqsadi va tegishli vazifalar keng miqyosli masalalarni, ya’ni sog‘lik va farovonlikdan tortib to iqlim o‘zgarishlarigacha, gender tengligidan tortib iste’mol va ishlab chiqarish modellari o‘zgarishlarigacha bo‘lgan jarayonni qamrab olgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarida nafaqat turli sohalarda ustuvor yo‘nalishlar, yangi keng ko‘lamli vazifalar belgilab olinayapti, balki ularda yangi ufqlar ham o‘z ifodasini topmoqda. Birinchi marta xalqaro shartnomada rivojlanish jarayonida umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritadigan, samarali va hisobdor muassasalar hal qiluvchi rol o‘ynashi belgilab berilgan.

Ta’kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘la hamohang bo‘lgan Harakatlar strategiyasiga muvofiq qabul qilinayotgan Davlat dasturlariga binoan ishlab chiqilib, hayotga tadbiq qilinayotgan qonunlar mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qonun ijodkorligi va parlament nazorati faoliyati doirasida tegishli ishlar belgilab olingan bo‘lib, xususan, parlament O‘zbekistonning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishish bo‘yicha Hukumat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda parlament va qo‘mita eshituvlarini amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabridagi qarori 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Milliy indikatorlarni ishlab chiqaradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi yig‘ilishidagi nutqida “Bundan buyon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish bo‘yicha vazirlar hisobotlarini eshitishni yo‘lga qo‘yishi lozim” deb ta’kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2020-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha Parlament komissiyasini tuzish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori

mamlakatimizda 2030-yilga qadar yuqorida keltirilgan keng ko‘lamli maqsadlarga hamohang ekanini tasdiqlovchi muhim qadamdir.

XXI asrda yuzaga kelgan og‘ir ekologik vaziyatdan chiqish yo‘llarini va ularning yechimini izlab topish uchun bugungi kunda ro‘y berayongan zamonaviy muammolarni hal qilish va kelgusida ularning oldini olish hamda salbiy oqibatlarini yumshatishga yo‘naltirilgan barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ishlab chiqildi. “Barqaror taraqqiyot” atamasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, uni turg‘un, qo‘llab-quvvatlanayotgan, avaylanayotgan, davomli, uzluksiz rivojlanish deb tarjima qilish mumkin. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari global miqyosga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududlarida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Buni Orol dengizining qurishi natijasida Markaziy Osiyodagi global iqlim o‘zgarishlari dunyo ko‘rsatkichlaridan ikki barobar jadalroq kechayonganida ham ko‘rish mumkin. Daryolar suvini shakllantiruvchi muzliklarning juda katta sur’atlarda erib ketayotganligi, chang va qum bo‘ronlarining uzoq davom etayotganligi, davriyligi, chang bo‘ronlari sonining ortib borayotganligi, sahrolanish jarayonlarining kuchayib borayotganligi hamda yerlarning degradatsiyasi, suv resurslarining taqchilligi va noto‘g‘ri taqsimlanishi kabi salbiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Butun dunyoda kuzatilayonganidek, global qlim o‘zgarishlari muammosi O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Iqlim o‘zgarishlari natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni quyidagagi misollar yordamida ko‘rsatish mumkin: suv resurslari taqchilligining kuchayishi va noto‘g‘ri taqsimlanishi; o‘rtacha havo haroratning oshishi; yog‘ingarchiliklarning kam yogi‘shi; yog‘ingarchiliksiz kunlarning ya’ni qurg‘oqchilikning uzoq davom etishi va bir martada yog‘inlarning yog‘ib o‘tishi; -qishloq xo‘jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibining butunlay o‘zgarishi; harorat oshishi natijasida aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarning ko‘payishi kabi salbiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Abadiy muzliklarning erishi natijasida dunyo okeani suvining harorati va fizik xossalari, okeanlardagi oqimlar, ushbu oqimlarga tutash bo‘lgan mamlakatlarda iqlim, global gidrologik sikl va iqlimni yaratuvchi global jarayonlar o‘zgaradi, natijada yog‘ingarchiliklar amplitudasida katta o‘zgarishlar yuz berib u o‘ta ko‘p yog‘in yog‘ishi yoki umuman yog‘masligiga olib kelishi mumkin. Natijada qurg‘oqchilik va toshqinlar soni keskin ko‘payadi, tabiiy ofatlar – tayfunlar, sellar, tornadolar, ko‘chkilar yuz beradi. Bu holat bir tomondan uncha qo‘rqinchli bo‘lib tuyulmasligi mumkin. Agar sayyoramizda harorat yana besh darajaga ko‘tarilsa, barcha jarayonlar orqaga qaytarib bo‘lmaydigan tus oladi va sayyoramizda hayotga, tiriklikka jiddiy xavf tug‘ilib, yerda hayotning mavjudligi so‘roq ostida qoladi.

Bugungi kinda biz yashab turgan, doimiy munosabatda bo‘lib kelayotgan ona zamin, yerda hayotning paydo bo‘lishi, tabiiy muhitning uzoq geologik davrlar - 4,5–4,7 milliard yillar mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta’sirida, ya’ni quyosh nuri, yerning gravitatsiya kuchi, ko‘lami, aylanma va tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o‘zgarishi, ekzogen jarayonlar ta’siri, organik dunyoning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ta’sirida tarkib topgan.

Tabiiy muhitning holati o‘zaro ta’sir etib turuvchi bir qancha omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog‘liq bo‘lib, bir joyning iqlimi quyosh nurining tushish burchagiga, ya’ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi hamda oqimlari va boshqalarga uzviy va chambarchas holda bogliq bo‘ladi. O‘simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog‘ jinslari, relyef, tuproqlar bilan chambarchas bog‘liq hamda bu tabiiy omillarning bittasida o‘zgarish ro‘y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitning o‘zgarishiga olib keladi. Ba’zan, tabiatning biror komponentiga ko‘rsatilgan ma’lum bir ta’sir hech kutilmagan katta o‘zgarishlarga, xususan, xavfli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda 10 dan ortiq o‘rmon xo‘jaligi, 9 ta qo‘riqxona, 2 milliy bog‘, bir qancha buyurtma qo‘riqxona mavjud bo‘lib, ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o‘simlik va hayvonlar qo‘riqlanadi, o‘rganiladi va ko‘paytiriladi. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston jamiyati, O‘zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiy-ommabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniye vaqtli matbuot tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilmoqda. Aholi o‘rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko‘tarish tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o‘quv kurslari o‘rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti fanining atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati talabalar bilimini oshirishdagi o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, sohada yetuk kadrlar tayyorlashda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ramazonovich, R. B., & Ramazon, K. (2018). Evolution of soils of the Aral Sea area under the influence of anthropogenic desertification. European science review, (1-2), 24-28.

2. Ramazonov, B. R., & Kuziev, R. K. (2020). Soils of the dried part of the aral sea and problems of desertification. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 565-577.
3. Рамазонов, Б. Р. (2021). Сельскохозяйственные культуры и их продуктивность в нижне амударьинском регионе. Academic research in educational sciences, 2(1), 1001-1006.
4. Рамазонов, Б. Р. (2021). Процессы эрозии, опустынивание в природе и их основные характеристики. Academic research in educational sciences, 2(5), 386-396.
5. Рамазонов, Б. Р., & Муталов, К. А. (2021). Взаимосвязь между экологией и экологические науки мониторинг загрязнения почвы. Academic research in educational sciences, 2(9), 946-954.
6. Қурбонов, Ш. Ш., & Рамазонов, Б. Р. (2021). Қишлоқ хўжалик фанларини ўқитиш методикасининг педагогика ва бошқа фанлар билан боғлиқлигининг илмий-амалий аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 51-59.
7. Баракаевич, Қ. С., Рамазонов, Б. Р., & Журакулович, Х. Р. (2020). Сув ресурсларининг танқислиги–глобал экологик муаммо. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).
8. Рамазонов, Б. Р., & Курбонов, Ш. Ш. (2021). Формирование компетенции у студентов биологического направления вузов в обучении предмета почвоведение и биологические основы сельского хозяйство. Academic research in educational sciences, 2(4), 319-325.
9. Ramazonov, B., & Khujanazarov, U. (2024) Conservation of biodiversity in our country and their significance in economic development.Science and innovation, 3(Special Iss. 36),621-625.
10. Ramazonov, B. (2024). Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida atrof-muhit muammolari. Science and innovation, 3 (Special Issue 36), 616-620.
11. Ramazonov, B., & Mutalov, A. (2024). Genesis and evolution of the soil and regionalized crop plants in the lower reaches of amu darya region, Uzbekistan. Sabrao Journal of Breeding & Genetics, 56(2).
12. Ramazonov, B., Jabborov, E., Khalikov, B., & Koshbokov, D. (2024). The importance of using modern innovative pedagogical technologies in teaching the subject economics of natural resources and environmental protection. Science and innovation, 3(A6), 107-110.
13. Mutalov, K. A., Ramazonov, B. R., Abduraimova, K. I., & Nematova, O. R. (2023). The Community of Mixed Skin Plants (Calligoneta CaputMedusa, C.